

---

## Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining oltinchi chaqiriq oltmish beshinchi sessiyasi bo'lib o'tdi

Bugungi sessiyada shahar hokim o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga daxldor tashkilot va korxonalar rahbarlari taklif etildi.

Sessiya kun tartibidagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi «Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 145-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona shahrida «Ayollar daftari» ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy-moddiy ahvolini inobatga olib «Ayollar daftari» jamg'armasi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida»gi masala yuzasdan shahar hokimi o'rinbosari- oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Dilshodaxon Xolmatovaning axboroti eshitildi.

Shundan so'ng, Farg'ona shahar «Besh bola» MFYda ichimlik suvi qudug'i qazish bilan bog'liq xarajatlar uchun Farg'ona shahar mahalliy byudjetining 2022 yil 2-chorak yakuni bo'yicha daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan 150.0 (bir yuz ellik) million so'm mablag'ni Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratish to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqildi.

Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlarining muhokama, taklif va mulohazalaridan so'ng tegishli qarorlar qabul qilindi.

2022-07-06 11:54:36